# Innovative technologies of formation of communicative competence in teaching English in primary education

***M.E.Sharipova***
*Nizomiy nomidagi TDPU Ijtimoiy-gumanitar yo'nalishlarda xorijiy tillar kafedrasi o'qituvchisi*

**Abstract:** In this article, pedagogical technology, the use of innovative technologies in the formation of communicative competence in foreign language teaching in elementary grades is covered. The article describes the role and types of different games in the process of teaching English for primary grades.

**Key words:** pedagogical technology, communicative competence, innovation technology, information technology

Ma`lumki, har qanday pedagogik texnologiya ta`limning rivojlantiruvchi tamoyillariga asoslangan bo`lib, u o`quvchi shaxsiga yo`naltirilmog`i kerak. Pedagogik texnologiya o`zi nima? Pedagogik texnologiya bu, ta`lim shakllarini optimallashtirish maqsadida texnik vositalar, inson salohiyati hamda ularning o`zaro ta`sirini inobatga olib, o`qitish va bilim o`zlashtirishning barcha jarayonlarini aniqlash, yaratish va qo`llashning tizimli metodidir. Darhaqiqat, ilg`or pedagogik texnologiyalar ta`lim jarayoni unumdorligini oshiradi, o`quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o`quvchilarda bilimga ishtiyoq va qiziqishni o`stiradi, bilimlarni mustahkam o`zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko`nikma va malakalarini shakllantiradi. Yangi pedagogik texnologiyalarga asosangan, didaktik o`yinlar va interfaol metodlar asosida tashkil etilgan, ya`ni hamkorlikka asoslangan ta`limda o`quvchilar o`zaro fikr almashadilar, muomala qilish malakalari oshadi, har bir o`quvchi o`zi, guruhi, sinfi uchun javob berishga harakat qiladi, o`zaro ishonch paydo bo`ladi, birdamlik va hamjihatlik kuchini, sinf uchun ma`suliyatini his qiladi, har bir o`quvchiga rahbarlik rolini bajarish uchun imkon beriladi. Buning natijasida o`zaro do`stona munosabat shakllanib boradi. Bugungi kunda ta`lim jarayonida bir necha xil pedagogik texnologiyalar faol tarzda qo`llanib kelinmoqda. Bunday pedagogik texnologiyalarga quyidagilarni misol tariqasida keltirishimiz mumkin: - muammoli o`qitish texnologiyalari; - integratsiyalashgan o`qitish texnologiyalari; - axborot texnologiyalari; - modulli o`qitish texnologiyalari; - rivojlantiruvchi o`qitish texnologiyalari; - tabaqalashgan o`qitish texnologiyalari; - faol (majmuaviy) o`qitish texnologiyalari; - o`yinli o`qitish texnologiyalari; - hamkorlikka asoslanga o`qitish texnologiyalari; - mediata`lim texnologiyalari va boshqalar. Pedagogik texnologiyada ta`lim jarayonining maqsadini belgilash muhim bo`lib, u rejalashtirilgan natijalarni kafolatlashi lozim. Shuning uchun ham o`qituvchilar maqsadni aniq belgilashga alohida e`tibor qaratishlari zarur. Har bir o`qituvchi avvalo o`zi o`qitadigan o`quv fani maqsadini va har bir o`tadigan

darsi maqsadini aniq belgilashi lozim. Boshlang`ich ta`lim tizimini modernizatsiyalashda axborot texnologiyalari yutuqlarini keng joriy etish ham muhim omil sanaladi. Bunda ta`lim sifati ortadi. Axborot texnologiyalari yuruqlari ayni paytda o`quvchilarni zamonaviy madaniyatga oshno etish vositasi bo`lib xizmat qiladi, axborotlashgan jamiyat sharoitida bu alohida dolzarblilik kasb etadi. Ta`lim texnologiyalarini ishlab chiqishda, avvalo, kichik maktab yoshidagi o`quvchilarning psixologik-pedagogik, fiziologik, yoshga oid hamda boshqa xususiyatlarini hisobga olish talab etiladi. Innovatsion ta`lim texnologiyalarini yaratish va undan foydalanish moda ketidan quvish emas, balki davr talabi ekanini yodda tutish lozim. Hozirgi kunda ta'lim jarayonida innovatsion pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayoniga qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan-kunga kuchayib bormoqda. Buning asosiy sabablaridan biri an'anaviy ta'limda o'quvchilarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, boshlang'ich ta'limda zamonaviy texnologiyalar ularni egallayotgan bilimlarini o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib, tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni ham o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. O'qituvchi bu jarayonda shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olishi va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi.

Pedagogik texnologiyalar ta'lim jarayonida sifat-samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi. O'quvchilarda mavzuni o'rganishga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, bilimlarni mustahkamlash, o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko'nikma, malakalarini shakllantiradi.

Barcha umumta'lim maktablarda boshlang'ich ta'lim sifat va samaradorligini oshirish zamonaviy pedagogik, innovatsion va axborot texnologiyalarni ta'lim jarayoniga tatbiq etish, ilg'or ish tajribalarini ommalashtirishni taqozo etadi. Boshlang'ich ta'limda innovatsiya va axborot texnologiyalarning asosiy vazifalari:

– ta'lim-tarbiya jarayonini umumiy, yaxlit ishlab chiqish;

– ta'lim-tarbiya jarayonida hal etilishi lozim bo'lgan aniq maqsad va vazifalarni belgilash;

– ta'lim-tarbiya jarayoni mazmunini ishlab chiqish;

– ta'lim-tarbiya jarayonida ta'lim oluvchining erkin, mustaqil faoliyat ko'rsatish uchun muayyan shart-sharoitlarni yaratish hamda ko'nikma va malakalarni shakllantirish;

– ta'lim oluvchilar faoliyatini nazorat qilish hamda baholashni tashkil etish;

– kadrlar tayyorlash Milliy dasturi maqsadi va vazifalarini ro'yobga chiqarish;

– fan-texnika taraqqiyotidagi axborotlarni yoshlarga yetkazishni tezlashtirish.

Boshlang'ich sinflarda innovatsiya va axborot texnologiyalardan foydalanish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

– o'quvchilarning bilim olish faoliyatini faollashtirish, o'quv materialini o'zlashtirish sifatini va ta'lim samaradorligini oshirish;

– tayyorgarlik darajasi turli bo'lgan o'quvchilarga nisbatan differensial yondashish hamda darslarni yuqori estetik darajada tashkil qilish (musiqa, animatsiya)

– o'quvchilarning atrof-muhitdagi axborot oqimlarini tanlash qobiliyatlarini

rivojlantirish, tasviriy ifodalash usulidan amaliy faoliyat ko'rsatish turiga o'tish, bu tarzda o'quvchi o'quv jarayonining sub'ektiga aylanadi.

Ingliz tili darslarida zamonaviy va axborot-kommunikatsiya texnologiyalar ta'limning sifat samaradorligini oshiradi, o'quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shaklantiradi, o'quvchilarda bilimga ishtiyoq hamda qiziqishni o'stiradi, bilimlarni mustahkam o'zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin fodalanish ko'nikma, malakalarni shakllantiradi.

Multimedia vositalaridan o'qitish jarayonida foydalanish o'qitishning sifati va samarasini orttirib, o'rgatishning eng qulay usullaridan biridir. Multimedia – bu zamonaviy kompyuterli axborot texnologiyalari bo'lib, matn, tovush, videotasvir, grafik tasvir va animasiyani (multiplekasiyani) yaxlit kompyuter tizimiga birlashtirish imkonini yaratadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarida zarur ko'nikmalarni,kompetensiyalarni shakllantirish, boshlang'ich ta'lim sifat-samaradorligini yangi bosqichga ko'tarish, o'qitishning zamonaviy usul, vositalarni amaliyotga joriy etish natijasida: bolaning o'qishga bo'lgan ijobiy munosabatini bugungi kunda eng zarur bo'lgan o'qish savodxonligi, turli ma'lumotlar bilan ishlash, mantiqiy va ijodiy fikrlash, o'z-o'zini boshqarish, jamoada o'zini tuta bilish, yozma, og'zaki nutq madaniyati qoidalarini egallash, ta'limiy faoliyatni tashkil etish kabi ko'nikmalarini shakllantirishda yordam beradi.

Ingliz tilidan tashkil etiladigan ta'limiy o'yinlar mazmuni o'z ichiga to'rt omilni qamrab oladi: 1) o'yin vazifasi; 2) o'yinning harakati; 3) o'yinning qoidasi; 4) o'yinning yakuni. Ingliz tilidan o'quvchilarga beriladigan o'yin topshiriqlarning murakkablik darajasiga ko'ra uch turga ajratish mumkin:

1) qayta xotirlashga asoslangan o'yin-topshiriqlar;
2) qisman ijodiy o'yin-topshiriqlar;
3) ijodiy o'yin-topshiriqlar.

Qayta xotirlashga asoslangan o'yin-topshiriqlar o'quvchidan hech qanday ijodiylikni, egallagan bilimlarni yangi sharoitda qo'llashni, yaratuvchanlikni talab etmaydi.

Qisman ijodiy o'yin-topshiriqlar o'quvchidan ma'lum bir yordamga asoslangan holda ijodiy faoliyat ko'rsatishni talab etadi.

Ijodiy o'yin-topshiriqlar oldin egallangan bilimlarni tamomila yangi sharoitda qo'llash demakdir. Shubxasiz, bu jarayon o'quvchidan ijodiylikni, izlanuvchanlikni talab etadi.

O'yindan darsning turli bosqichlarida foydalanish mumkin, lekin ular shunday joylashtrilishi kerakki, o'quvchi og'ir aqliy mehnatdan so'ng o'yindan o'ziga emotsional quvvat olsin. O'yin jarayonida o'quvchi o'zining harakatini o'rtoqlarining harakatiga solishtirsin, o'zini anglay borsin va unda tashabbuskorlik paydo bo'lsin. Ingliz tili darslarida qo'llanilib kelinayotgan o'yinlar xilma-xil bo'lib, ular turli tomondan turlarga bo'lingan. Didaktik o'yinlar o'quvchilarda tahlil qilish, mantiqiy fikrlash, tadqiq qilish, hisoblash, o'lchash, yasash, sinash, kuzatish,

solishtirish, xulosa chiqarish, mustaqil qaror qabul qilish, guruh yoki jamoa tarkibida ishlash, axloq-odob, nutq o'stirish, til o'rgatish, yangi bilimlar o'rgatish va boshqa faoliyat turlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'yinlarga ajratiladi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich ta'limda ingliz tilini o'qitishda kommunikativ kompetensiyalarni shakllantirishda an'anaviy va innovatsion texnologiyalar muhim rol o'ynaydi.

## Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Leontev A. A. Mesto psixologii v sovremennoy nauke o chtenii: Problemi sotsiologii i psixologii chteniya. — M.,1975.
2. Sherba L.V. Prepodavanie yazikov v shkole: Obshie voprosi metodiki: ucheb. posobie dlya stud. filol. fak. –3-ye izd., ispr. i dop. – SPB.: Izd-vo SPBGU; M.: Akademiya, 2003. – 160 s
3. Zaripova F.A. Chet tillar o'qitish metodikasidan qo'llanma.- Toshkent 2002y
4. Volovin, A.V. Kommunikativniy podxod k izucheniyu inostrannix yazikov v metodicheskix sistemax Velikobritanii i SSHA / A.V. Volovin // Kommunikativniy podxod k izucheniyu inostrannix yazikov : sb. na-uch. trudov. – Vip. 275. – M., 1985. – S. 19–32.
5. Abduganiyeva S.Sh. "Innovative, Modern Approach to Teaching English"- MIASTO PRZYSZŁOŚCI, 2022y
6. Allamuratov G.A. "Research of Modern Technologies of Education"- JOURNAL OF PHARMACEUTICAL NEGATIVE RESULTS, 2022y
7. Attaullaev F.F. "BIRLASHGAN ARAB AMIRLIKLARI YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATINING AYRIM JIHATLARI XUSUSIDA" - Scientific Impulse, 2022y
8. Babaxodjaeva Sh. M. "WINTER IS THE PURPOSE AND MEANS OF WINTERING"- E Conference Zone, 2022y
9. Boltaeva M.M. "FORMS OF INTRODUCTION OF INNOVATIVE TECHNOLOGIES IN PHYSICAL TRAINING CLASSES AND WAYS OF THEIR USE"- Scientific bulletin of namangan state university, 2019y
10. Karimova J.Sh. "Characteristics of Phraseological Units Related to Floronym in Languages (In the Example of English-Russian-Uzbek Languages)- Vital Annex: International Journal of Novel Research in Advanced Sciences (IJNRAS),2022y
11. Karimova J.Sh. "The Importance Of Listening In Foreign Language Learning"- The American Journal of Social Science and Education Innovations, 2022y
12. Maqsudova G.O. "Research of Modern Technologies of Education"- JOURNAL OF PHARMACEUTICAL NEGATIVE RESULTS, 2022
13. Maqsudova G.O." IMPROVING STUDENTS' FOREIGN LANGUAGE TRAINING ON THE BASIS OF AN INTEGRATED APPROACH"- Web of Scientist: International Scientific Research , 2022y

14. Mamajonova N.A. “Research of Modern Technologies of Education”- JOURNAL OF PHARMACEUTICAL NEGATIVE RESULTS, 2022y
15. Nabiyeva M.S. “The importance of the principles of collaborative learning in teaching English to middle school students” - Молодой ученый, 2020y
16. Ro’zmetova D.A. “ABOUT COMPARATIVE ANALYSIS OF ECONOMIC TERMS IN ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES.”- Theoretical & Applied Science, 2020y
17. Ro’zmetova D.A. “Challenges in Teaching English as a Specific Purpose” - Central Asian Journal of Theoretical and Applied Science,2021y
18. Ro’zmetova D.A. “Research of Modern Technologies of Education”- JOURNAL OF PHARMACEUTICAL NEGATIVE RESULTS, 2022y
19. Ro’zmetova D.A. “Research of Ecological Safety and Chemical Compositions of Phospholipids Obtained from Local Vegetable Oils and Their Miscelles”- E3S Web of Conferences 288, 01084 (2021)
20. Sadikov T.U. “IMPROVING THE PROFESSIONAL COMPETENCE OF MILITARY PEDAGOGIES FROM FOREIGN LANGUAGES AS ONE OF THE MAIN FACTORS OF MODERNIZATION OF EDUCATION”- European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2020
21. Tursunova I.S. “DUAL EDUCATION SYSTEM AND ITS IMPORTANCE IN TRAINING PROFESSIONALS”- International Journal of Psychosocial Rehabilitation,2020
22. Uralov O.Sh. “Internationalization of higher education in Uzbekistan” - Social Sciences & Humanities Open, 2022
23. Karimova J.Sh. “Антономические отношения между фразеологическими единицами с названиями растений”- Labaratorium WIEDZY,GOSPADARKA I INNOWACJE, 2022y
24. Karimova J.Sh. “INGLIZ TILI DARSLARIDA O`QUVCHILARNING LUG`AT BOYLIGINI OSHIRISHDA QO`LLANILADIGAN INTERFAOL USULLAR”- International Congress on Multidisciplinary Studies in Education and Applies Sciences, 2022y
25. Karimova J.Sh. “SEMANTIC FEATURES OF PHRASEOLOGICAL ANTONYMS WITH FLORONYMS IN ENGLISH”- International scientific-online conference: INTELLECTUAL EDUCATION TECHNOLOGICAL SOLUTIONS AND INNOVATIVE DIGITAL TOOLS,2022y
26. Abduganiyeva S.Sh. “Input processing in Adults SLA” - Involta Innovatsion Scientific Journal,2022y
27. Allamuratov G.A. “Model of fostering Student Tolerance in The Process of Learning a Foreign Language”- Eurasian Scientific Herald. 2022
28. Allamuratov G.A. “Didactic Aspects of developing Students' Professional Communicative Competence in Foreign language” - Oriental Journal of Philology/ Sharq filologiyasi jurnali,2022

29. Babahodjaeva Sh.M. “Some pecularities of teaching vocabulary”- ТДПУ Илмий ахборотномаси, 2022
30. Maqsudova G.O. “SOME ISSUES OF IMPROVING STUDENTS' FOREIGN LANGUAGE READINESS” - Oriental Journal of Philology/ Sharq filologiyasi jurnali , 2022
31. Maqsudova G.O. “ASSESSMENT OF STUDENTS' FOREIGN LANGUAGE READINESS THROUGH THE INTEGRATIVE DEVELOPMENTAL APPROACH”- Oriental Journal of Philology/ Sharq filologiyasi jurnali, 2022
32. Maqsudova G.O. “IMPROVING STUDENTS' FOREIGN LANGUAGE TRAINING ON THE BASIS OF AN INTEGRATED APPROACH”- Web of Scientist: International Scientific Research, 2022
33. Tursunova I.S. “Developing Pedagogical technologies and skills” - Web of Scientist: International Scientific Research Journal (WoS), 2022
34. Tursunova I.S. “American Journal of Interdisciplinary Reeach and Development” - Dual education system its importance in training professionals, 2022
35. Uralov O.Sh. “Олий таълимда миграция жараёнлари талабаларнинг академик мобиллиги хусусиятлари “-ТДПУ Илмий ахборотномаси,2022
36. Karimova J.Sh. “Фразео-синонимический ряд и проблема доминанты” - Хоразм маъмун академияси ахборотномаси , 2022
37. Karimova j.sh. “синонимический ряд фразеологических единиц с названиями растений в английском и русском языках” - “zamonaviy ta‟lim tizimini rivojlantirish va unga qaratilgan kreativ g„oyalar, takliflar va yechimlar” mavzusidagi 38-sonli respublika ilmiy-amaliy on-line konferensiyasi, 2022